# Transport tizimi samaradorligini aniqlash

12-MAVZU

# Reja

- Xalqaro transport yo‘laklari. Transevropa transport yo‘lagi. Panevropa transport anjumani.
- Mintaqalararo, mintaqalarichra va xalqaro transport aloqalari
- Navoiy intermodal logistik markazi. O‘zbekistonning transport yo‘laklari.

kullabs.com

# Xalqaro transport yo‘laklari. Transevropa transport yo‘lagi. Panevropa transport anjumani

## Xalqaro marshrutlarda transport ishini iqtisodiy baholashning uslubiyoti

- Transport yo‘laklari rivojlanishining biznes-rejasini ishlab chiqarish
- Optimallashtirish samaradorligini aniqlash
- Transport turlari faoliyatini boshqarishni takomillashtirish tamoyillari

## Transport tizimining samaradorligi har qanday davlat iqtisodiyotining muvaffaqiyatli rivojlanishining asosi hisoblanadi

- Transport tizimlari aholining iqtisoiy faolligini oshirishda
- korxonalarning sotish va xarid bozorlariga chiqishlarini yengillatishda hamda jahon iqtisodiyotiga samarali integratsiyasini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

# Transport tizimi samaradorligi

**Transport tizimi samaradorligini koʻrib chiqar ekanmiz**

- transportning davlatning iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasidagi muhim oʻrnini hisobga olishimiz kerak
- Mana shu xususiyatlarni hisobga olganda samaradorlik shakllanishi sxemasi quyidagi rasmda koʻrsatilgan

**Transport tizimi samaradorligi uch sub’ekt ishtirokida shakllanadi:**

- transport tizimi, xizmatlar iste’molchisi va davlat organlari
- Shunga asosan, samaradorlikni ta’minlash uchun bu sub’ektlar orasidagi kelishmovchiliklarni maksimal darajada bartaraf etish talab qilinadi.

**Transport tizimining iqtisodiy samaradorligi birinchi darajada uning ish samarsining harajatlarga nisbati aniqlanadi**

# Ikkinchi darajada transport tizimi samaradorligi

| Ikkinchi darajada transport tizimi samaradorligi uch asosiy pozitsiyadan aniqlanadi: | | |
|---|---|---|
| 1.Transport tizimi davlatning iqtisodiy o‘sishdagi va ijtimoiy rivojlanishdagi ehtiyojlarini qay darajada qoniqtirishi. | 2. Transport tizimi iste’molchilarning biznesni rivojlantirish, hayot darajasini ko‘tarish, mobillikni oshirish kabi ehtiyojlarini qay darajada qoniqtirishi. | 3. Transport tizimi faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik harajatlari ko‘rinishidagi natijalari. |

# Transport tizimi samaradorligi shakllanishi sxemasi



# Ishlab chiqarish

**xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishning mavjud amaliyotini o‘rganish asosida quyidagi kamchiliklarni ta’kidlab o‘tish mumkin:**

- texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarning erishilgan miqdorlarini solishtirish uchun etalon me’yorlarining yo‘qligi;
- baholash uslubiyoti va me’yorlarning, baholash bir-liklarining yo‘qligi, har bir texnik-iqtisodiy ko‘rsat-kichlar bo‘yicha ishlab chiqarish;
- ishlab chiqarish - xo‘jalik faoliyati tahlilida komplekslilik prinsipining buzilishi
- transport tizimining ishlash samaradorligini baholash va uning me’yoriy (etalon) baholash birlikla-rining yagona kompleks integral ko‘rsatkichining yo‘qligi va h.q

# Transport tizimi faoliyatining rivojlanish va samaradorligi belgilari

**Transport tizimi faoliyatining rivojlanish va samaradorligining ayrim belgilari**

- ekspluatatsion va texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar majmuasini qabul qilish mumkin

**Har bir ekspluatatsion va texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichning farq qiladigan xislati**

- uning o‘lchami va fizik ma’nosining ma’lum mazmuni hisoblanadi

# Mintaqalararo, mintaqalarichra va xalqaro transport aloqalari

## Davlatlarining avtomobilda tashishni amalga oshirish bo‘yicha

- xalqaro konvensiya  va bitimlarga qo‘shilishi Konvensiya va bitimlar
- davlatlar Azarbayjan, Armaniston, Belarus, Gurjiston, Qazog‘iston, Moldova, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston, Qirg‘izston, Ukraina. Xalkaro avtomagistrallar to‘grisidagi Yevropa bitimi (SMA)

## Yevropa bayonnomasiga yo‘l o‘lchami to‘grisidagi bayonnoma

- yo‘l belgilari signallari to‘grisidagi to‘ldiruvchi konvensiya (01.03.73y.)

## Avtomobil transportida xalqaro yuk tashishlarni amalga oshiruvchi  transport vositalari

- ekipajlari  ishiga tegishli Yevropa bitimi (YESTR) (01.07.70y.)

# Vatanimizda va chet ellardagi ushbu masala bo‘yicha ilmiy izlanishlar

| | |
|---|---|
| Ilmiy izlanishlar natijalarining tahlili bizga shuni ko‘rsatdiki | transport faoliyatining samaradorlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish |
| | sifatini baholash va xulosalar qabul qilish uchun umumlashtirilgan ta’sirni qurishning eng qulay uslublaridan biri |
| Umumlashtirilgan funksiyani qurish zaminida tabiiy qiymatlarni | maqbullik va afzalliklarning o‘lchovsiz shkalalariga  ayrim ta’sirlarni qayta shakllantirish g‘oyasi yotadi. |

# Ko‘rsatkichlarni nisbiy cheklanishlari va absolyut qiymatlari

## Me’yorlarining chegaraviy baholash qiymatlarini aniqlash misollarini keltiramiz

- Masalan, ko‘rsatkich absolyut qiymatining o‘zgarish oralig‘i1=8 (Tn)da 8 dan to 14 soatgacha bo‘lsin
- Ko‘rsatkichning optimallashtirilishi uning maksimal qiymati bo‘yicha amalga oshiriladi
- ya’ni Tn →max. Bu vaziyatda abssissa shkalasining +3,0 maksimal qiymatini belgilovchi nuqtasi qarshisida I - ko‘rsatkichning (Tn=14 s) maksimal bo‘lishi mumkin qiymatini $X_{I(max)}$qo‘yamiz
- «-» minimal qiymati qarshisida esa T=8 s minimal qiymatini qo‘yib qo‘yamiz
- «+3» maksimal qiymati qarshisida esa Tn=14 s ni qo‘yib qo‘yamiz. 8 dan to 14 soatgacha Tn ning o‘zgarish chegarasi 4 ta qismga bo‘lamiz

# «Maqbullik» funksiyasi

**Shu sababli «maqbullik» funksiyasi egri chizig‘ining abssissa shkalasi bo‘yicha**

- turli baholov me’yoriy qiymatlarining ham absolyut ham nisbiy me’yorlarini aniqlash mumkin
- nisbiy cheklanishlarning baholash me’yoriy qiymatlarini aniqlash mumkin
- nisbiy cheklanishlarning baholash me’yoriy qiymatlarini aniqlaymiz va natijalarni jadvalga kiritamiz

**Texnik taraqqiyot yutuqlarini tadbiq etish**

- texnik iqtisodiy va ekspluatatsion ko‘rsatkichlarni yaxshilashga ta’sir etadi
- va shu bilan birga transport tizimi samaradorligini oshirish darajasiga boshqaruv ta’sirini o‘tkazadi

# Transport tizimi rivojlanishi va faoliyat ko‘rsatishi

Komleks baholashning matematik modeli xalqaro transport tizimini ratsional rivojlantirishning istiqbolini belgilashning dastlabki asosiy shartlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- o‘tkazish va tashish qobiliyatini kerakli darajada kuchaytirilishini belgilash

- alohida elementlar va butunlay bir transport tizimini rivojlanish masshtablari

- tashkiliy-texnik shakllarni va transportdagi ishlab chiqarish

# Har bir ko‘rib chiqilgan ko‘rsatkichlar

- Ko‘pgina o‘zgaruvchilarning funksiyasi hisoblanadi
  - xalqaro transport tizimining samarador faoliyat ko‘rsatishi
  - har bir xususiy mezonining optimallashuviga bog‘liq
- Istiqbolni belgilash faqatgina tashish qobiliyatining barcha mavjud zahiralaridan
  - foydalanishning tahlili asosida bajarilishi mumkin
  - ya’ni har bir xususiy belgisi bo‘yicha mavjud holati baholanadi

# Transport tizimi holatini kompleks baholash va ratsional rivojlanishi

Transport tizimi holatini kompleks baholash va ratsional rivojlanishi istiqbolini belgilash uslubi quyidagilarga imkon beradi:

- alohida xususiy belgisi bo‘yicha ham va butun tizim ishining kompleks ko‘rsatkichlari bo‘yicha;
- transport tizimidagi qoloqlik yo‘nalishlari «ojiz bo‘g‘in»ni belgilash imkoniyati;
- qoloqlik darajasini miqdoriy baholash imkoniyati;
- xalqaro transport tizimini takomillashtirish bo‘yicha birinchi galdagi tashkiliy-texnik tadbirlarni tanlashni amalga oshirish;
- xalqaro transport tizimi ishining texnik-iqtisodiy va ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini istiqbolini aniqlash imkoniyati;

# Rossiya transport tor yo‘llari

| | |
|---|---|
| Ushbu tarmoq yetarlicha rivojlangan bo‘lsada | • lekin masofalarning kattaligi va temir yo‘l transporti foydasiga |
| Hajmli materiallar va xomashyolarni tashish uchun temir yo‘l eng qulay hisoblanar edi. | • Ammo oxirgi vaqtlarda temir yo‘l tranzit tariflari sezilarli ko‘tarildi va Rossiya tomonining monopol narx siyosati  tufayli yana ko‘tarildi |

# Transport tor yo‘llari

Mavjud transport tor yo‘llaridan foydalanish uchun

qattiq valyutada haq to‘laydigan O‘zbekiston uchun bu alohida muhimdir

O‘zbekiston uchun tranzit yuklarni tashishdagi valyuta xarajatlarni

faqat yo‘ldagi yonilg‘iga to‘lashga hamda ularni tashishdagi xavfsizlikni ta’minlashga sarflanishiga olib kelishi kerak

# Avtomobil transporti sohasida oʻzbekiston respublikasi va xorijiy davlatlar oʻrtasida imzolangan ikki tomonlama bitimlar:

| Mamlakat | Bitimning nomlanishi |
|---|---|
| Turkiya bilan | Соглашение между Правительством Республики Ўзбекистон и Правительством Турецкой Республики о сухопутном сообщении |
| Ukraina bilan | Соглашение между Правительством Республики Ўзбекистон и Правительством Украины о международном автомобилном сообщении |
| Eron bilan | Соглашение между Правительством Республики Ўзбекистон и Правительством Исламской Республики Иран о международном автомобилном сообщении |
| Xitoy bilan | Соглашение между Правительством Республики Ўзбекистон и Правительством Китайской Народной Республики о международном автомобилном сообщении |
| Belorus bilan | Соглашение между Правительством Республики Ўзбекистон и Правительством Республики Беларусь о международном автомобилном сообщении |
| Gruziya bilan | Соглашение между Правительством Республики Ўзбекистон и Правительством Республики Грузия о международном автомобилном сообщении |
| Moldova bilan | Соглашение между Правительством Республики Ўзбекистон и Правительством Республики Молдова о международном автомобилном сообщении |
| Turkmaniston bilan | Соглашение между Правительством Республики Ўзбекистон и Правительством Туркменистана о международном автомобилном пассажирском и грузовом сообщении |
| Latviya bilan | Соглашение между Правительством Республики Ўзбекистон и Правительством Латвийской Республики о международном автомобилном сообщении |
| Ozarboyjon bilan | Соглашение между Правительством Республики Ўзбекистон и Правительством Азербайджанской Республики о международном автомобилном пассажирском и грузовом сообщении |

# Navoiy intermodal logistik markazi. O‘zbekistonning transport yo‘laklari



## O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning PF-4059 sonli Farmoniga ko‘ra

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| jahon standartlariga javob beradigan va jahon bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarishni ta’minlaydigan | zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy investitsiyalarn | birinchi galda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha qulay shart-sharoitlar yaratish | shuningdek Navoiy viloyatining sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish | transport-tranzit va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida Navoiy shahri xalqaro aeroporti hududida “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasiga asos solindi |



# Birinchi Prezidentimiz Farmoniga ko‘ra

- “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zona hududida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining asosiy yo‘nalishi
  - zamonaviy xorijiy yuqori unumli asbob - uskunalar va texnika
  - texnologik liniyalar va modullar
  - innovatsiya texnologiyalarini joriy etish hisobiga yuqori texnologiyali
  - jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarni keng ko‘lamda ishlab chiqarish belgilandi

# EIIZ faoliyati

## EIIZ faoliyati davomida

- uning hududida alohida bojxona
- valyuta va soliq rejimlar
- O‘zbekiston Respublikasi norezident fuqarolarining uning hududiga kirish
- hududda bo‘lish va chiqib ketishning
- shuningdek ular tomonidan mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ruxsatnomalar

## “Navoiy” EIIZda alohida huquqiy tartib

- shu jumladan, soliq, valyuta va bojxona tartibi
- faqat EIIZ hududida faoliyat ko‘rsatayotgan va EIIZ direksiyasi tomonidan ro‘yxatga olingan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar

## “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zona faoliyatini muvofiqlashtirish va tezkor boshqarish

- tegishli ravishda davlat organlari vakillaridan tashkil etiladigan Ma’muriy kengash va EIIZ direksiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

# “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zona

**“Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zona direksiyasi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga**

- EIIZ hududida yer uchastkalarini subijaraga topshirish
- o‘z huquq va majburiyatlarini ijara shartnomasi bo‘yicha boshqa shaxsga berish
- ijara huquqini garovga qo‘yish
- ularni ulush sifatida ustav kapitaliga qo‘shish huquqisiz ijaraga beradi

**“Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonada ro‘yxatdan o‘tgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar ularga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hajmi quyidagicha**

- yer solig‘i, mulk solig‘i, daromad solig‘i,
- obodonchilik va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i,
- yagona soliq to‘lovi (kichik korxonalar uchun),
- Respublika yo‘l jamg‘armasi va Respublika maktab ta’limini rivojlantirish jamg‘armasiga majburiy to‘lovlardan ozod etiladi

# To’lovlar

Respublika yo‘l jamg‘armasi va Respublika maktab ta’limini rivojlantirish jamg‘armasiga majburiy to‘lovlardan ozod etiladi:

- 3 million yevrodan 10 million yevrogacha - 7 yilga,
- 10 million yevrodan 30 million yevrogacha - 10 yilga,
- keyingi 5 yil davomida foyda solig‘i va yagona soliq to‘lovi hajmi amaldagi stavkadan 50 foiz miqdorida belgilanadi.
- 30 million yevrodan ortiq bo‘lganda - 15 yilga.

# EIIZda ro‘yxatga olingan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar

EIIZ faoliyat ko‘rsatadigan butun muddatga eksportga yo‘naltirilgan

mahsulot ishlab chiqarish maqsadida mamlakatga olib kelinayotgan asbob – uskunalar shuningdek xom - ashyo, materiallar va butlovchi qismlar bojxona to‘lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig‘imlardan tashqari) ozod qilinadi.

# O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek:

- «O‘zbekiston va Markaziy Osiyodagi qator davlatlar dengiz transport kommunikatsiyalariga bevosita chiqish imkoni bo‘lmagan ahvolga tushib qolishning naqadar qiyinligini juda yaxshi his qilmoqdalar
- Ba’zan eksport qilinayotgan mahsulotni  tashish uchun  ketadigan xarajatlar mahsulot narxidan ham oshib ketadi
- bu esa  eksportni iqtisodiy jihatdan  besamara qilib, hayot  kechirish uchun o‘ta zarur bo‘lgan mahsulotlarni import qilishni  mushkul qilib qo‘yadi

# Loyihani amalga oshirish

| | |
|---|---|
| Shuning uchun loyihani amalga oshirish | dengizga, transevropa va transosiyo transport tarmoqlariga chiqish imkoniga ega bo‘lmagan |
| | balki transport yo‘llarini qisqartirib, eksport qilishni kengaytirish |
| | loyiha ishtirokchilari bo‘lgan davlatlar o‘rtasida o‘zaro foydali tashqi savdo faoliyatini jadallashtirishda yangi istiqbollar ochadi. |
| Ayni paytda loyihani amalga oshirish | o‘z tovarlarini O‘rta Osiyo va Kavkazortining ulkan bozorlariga kiritish |
| | ushbu mintaqalardagi o‘z ishtirokini kuchaytirishdan manfaatdor bo‘lgan Yevropa davlatlari uchun ham foydalidir |